

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNXODJAYEVA SHIRIN ZAFAR QIZI

INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHDA MOLIYAVIY
RISKLARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi

Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish.....3

Турсунходжаева Ширин Зафар кизи

Совершенствование методологии управления финансовыми рисками при формировании инвестиционного портфеля.....35

Tursunkhodjaeva Shirin Zafar kizi

Improvement of the methodology of financial risk management in the formation of an investment portfolio.....69

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....74

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNXODJAYEVA SHIRIN ZAFAR QIZI

INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHDA MOLIYAVIY
RISKLARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.3.DSc/Iqt764 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Saidaxror Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "1308" kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 60A uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1714 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 60A. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "26" 07 daqi 46 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.Z. Teshabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.X. Ataniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

LN. Qo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

Kirish (iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, globallashtirish, xalqaro integratsiya, pandemiya, "iqtisodiy urushlar", raqamlashtirish va "yashil" moliyalashtirish jarayonlarining jadallashishi natijasida moliyaviy risklar turlari hamda yo'qotish darajasining oshishi investorlarning investitsiya portfelini shakllantirishda turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, 2010-yildan buyon ishlab chiqarish sur'atining pasayib borishining asosiy sababi investitsiya hajmining kamayib borishi hisoblanadi. Ko'p hollarda noaniqlik hamda bozorning davlat tomonidan haddan tashqari tartibga solinishi korxonalarining sarmoya kiritish istagini pasaytiradi.¹ Ayni paytda global iste'mol inflyatsiyasi 7 foizni² tashkil etadi. Butun dunyo bo'ylab markaziy banklar vaziyatni nazorat qilishga urinayotgani sababli iste'mol tovarlarini sotib olish qiyinlashmoqda va foiz stavkalari ko'tarilmoqda. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, fond bozorini yuqori darajada tebratib, investor qarorlariga sezilarli ta'sirini o'tkazadi.

Jahon amaliyotida investitsiya portfelini optimallashtirish muammosi moliya sohasidagi asosiy muammo hisoblanib, bunda investitsiya portfeli daromadini maksimal darajada oshirish hamda moliyaviy risk darajasi minimallashtirish uchun moliyaviy aktivlar o'rtasida mablag'larni optimal taqsimlash jarayonidagi murakkabliklar tushuniladi. Ushbu muammoning yechimlari investorlarning riskka bo'lgan munosabati, investitsiya strategiyalari, riskni miqdoriy baholash uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlar, daromadni hisoblash usullari va rejalashtirish gorizonti kabi ko'plab omillarga bog'liq. Hozirda ushbu muammoni tadqiq etgan ilmiy adabiyotlar hajmi jihatidan sezilarli darajada oshganiga qaramay, noaniqlik sharoitida investitsiya portfelini shakllantirish strategiyalarining xilma-xilligi, ulardagi moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va nazoratining uslubiy jihatlarini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etish hamda moliyaviy instrumentlarni optimal kombinatsiyasiga erishishning murakkabligi bilan bog'liq muhim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

O'zbekistonda bugungi kunda fond bozorining rivojlanib borishi, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni oqilona boshqarish metodologiyasini takomillashtirish zarurligini dolzarb masalalar sirasiga kiritdi. Misol uchun, Toshkent Respublikasi fond indeksi (UCI) dagi o'zgarishlar savdo hajmi yoki sotilgan aksiyalar soniga emas, balki, birja kotirovka varag'idagi aksiya emitentlarining bozor kapitallashuviga bog'liq bo'lib, bir dona aksiyaning joriy bozor narxidagi o'zgarishi o'z-o'zidan indeksning o'zgarishiga olib keladi. Bunda savdo sessiyasi davomida bir muddat vaqt davomida savdolar amalga oshirilmagan aksiyalar bilan amalga oshirilgan ixtiyoriy bitim ham UCI indeksiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bozordagi haqiqiy holati bo'yicha dolzarb ma'lumot olish uchun noqulayliklar yuzaga keltirishi mumkin. Bunday noxolis ta'sir ko'rsatish sharoitida shakllangan har qanday ko'rsatkich o'z navbatida to'g'ri va asosli ma'lumot yoki

¹ Carstens A. Risks facing the global economy. At the Geneva Association Chief Investment Officer Conference 2024. Rüsçlikon, 22 October 2024

²<https://www.visualcapitalist.com/100-trillion-global-economy>

manba sifatida bozor ishtirokchilariga noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish lozimligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni, 2021-yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli Qarori, 2023-yil 2-sentyabrda "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi "Fond birjasida aksiyalarning birlamchi va ikkilamchi ommaviy takliflarini (IPO va SPO) o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi 358-sonli Qarori, 2021-yil 29-martda "2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 166-sonli Qarori, 2024-yil 7-mayda "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish jarayonlarini va xususiylashtirish dasturi ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 268-sonli Qarori, shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.³ Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va nufuzli xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, jumladan, University of London, University of California System, Capital University of Economics & Business, Vasile Goldis Western Univ Arad, Zhejiang Gongshang University, Slovak Academy of Sciences kabi tashkilotlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar negizida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlardan, 2007-yilning 4-chorak va 2008-yilning 4-choragi oralig'ida, global moliyaviy inqiroz avjida bo'lgan davrda boylik o'tkazmalari geografiyasini o'rganib, (University of London) qarz portfelli bo'yicha daromad va yo'qotishlar mamlakatning valyuta taqchilligi darajasi bilan bog'liqligi topilgan.

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida ishlab chiqilgan: www.london.ac.uk, www.universityofcalifornia.edu, www.cueb.ciss.cn, www.uvvg.ro, www.zjgsu.edu.cn, www.sav.sk

COVID-19 pandemiyasining investitsiya portfeliga taʼsirini aniqlash uchun Markovitz va Index modellaridan foydalangan holda 2001-yildan 2021-yilgacha boʻlgan davrdagi 10 ta aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalaridan iborat investitsiya portfeli shakllantirilgan, (University of California System) tadqiqot natijasiga koʻra, Index model portfellarining rentabelligi va standart ogʻishi Markovitz modelidan yuqori ekanligi aniqlandi. Keyingi tadqiqot ishida investitsiya portfelining hedjirlash tahlilini amalga oshirish uchun kovariatsiya modelidan foydalanilgan, tadqiqot natijasida moliyaviy risk darajasi teng boʻlgan investitsiya portfellarida daromadlarni maksimal darajada oshirishga yoki teng daromadlar ostida risklarni minimallashtirishga, shuningdek, investitsiya portfelining tuzilishini oʻzgartirish orqali moliyaviy risklarni kamaytirishga erishilgan. (Capital University of Economics & Business) Optimal diversifikatsiyalangan investitsiya portfellarda moliyaviy risklarni boshqarish masalalari boʻyicha ilmiy ishlardan: oddiy sanoat aksiyalari, davlat obligatsiyalari va bank veksellari kabi moliyaviy instrumentlarni oʻz ichiga olgan xoʻjalik aktivlari portfelini diversifikatsiya qilish orqali Yangi Zelandiya fermerlari tomonidan risklarni kamaytirish ehtimoli oʻrganilgan (University of London) hamda oddiy aksiyalardan koʻra asosiy hissasi obligatsiyalarga toʻgʻri kelgan investitsiya portfellari moliyaviy risk darajasi past hamda daromadlilikini maksimal oshirish mumkinligi aniqlandi. Zamonaviy portfel nazariyasi asosida daromadlilik va riskni tahlil qilish asosida turli xildagi moliyaviy aktivlar tanlanganda (Vasile Goldis Western Univ Arad), ularning hajmini aniqlash va investitsiya maqsadiga qarab portfelni samarali monitoring qilish imkonini beradi. Keyingi tadqiqotda investitsiya risklariga tolerantlik, ishonch darajalari va investitsiya portfeli riski oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilingan. (Zhejiang Gongshang University) Unga koʻra, moliyaviy risklarga bardoshlilik va investitsiya portfeli riski oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik aniqlangan. Rivojlangan mamlakatlarda keng koʻlamli soʻrovnoma oʻtkazilib, unda moliyaviy riskka munosabat va portfel taqsimotining oʻzgaruvchilari tahlil qilindi. (Slovak Academy of Sciences) Investitsiya tanlovlari boʻyicha taxminlarni asoslash uchun subyektiv moliyaviy risklarga bardoshlilikka (gipotetik portfellarga nisbatan bildirilgan imtiyozlar orqali ifodalangan) va obyektiv moliyaviy risklarga bardoshlilikka (jami moliyaviy aktivlardagi riskli investitsiyalarning haqiqiy ulushi orqali ifodalangan) bogʻliq ikkita oʻzgaruvchidan foydalanilgan. Standartlashtirilgan regressiya koeffitsiyentlari shuni koʻrsatdiki, subyektiv va obyektiv risklarga bardoshlilikdan soʻng moliyaviy investitsiyalar boʻyicha amaliy tajriba riskka boʻlgan munosabatning eng muhim koʻrsatkichlaridan ekanligi aniqlandi.

Jahondagi ilmiy markazlar, oliy taʼlim muassasalari va xalqaro reyting agentliklari tomonidan investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning fundamental, ilmiy-metodologik va amaliy muammolarini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan, investitsiya portfelini optimallashtirish muammolar va ularning yechimlari, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash modellarini tahlil qilish, investitsiya portfelini shakllantirishda ichki va tashqi muhit taʼsirini empirik tadqiq qilish, moliyaviy instrumentlarni daromad va risklilik darajasini baholash, optimal diversifikatsiyalangan investitsiya portfelini shakllantirish, chiziqli va chiziqsiz

modellaridan foydalangan holda investitsiya portfelini daromadlilikini prognoz qilish kabi yo‘nalishlarni keltirish mumkin.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Moliyaviy risk sharoitida optimal investitsiya portfelini shakllantirish masalalari H.Markovitz, W.Sharp, R.Merton, J.Lintner, E.Fama, P.Samuelson, Z.Li, H.Yang, X.Deng, A.Ghahtarani, A.Saif, A.Ghasemi⁴ kabi iqtisodchi olimlarning asarlarida o‘z aksini topgan.

Investitsiya portfelini optimallashtirish masalalarining umumnazariy jihatlari bo‘yicha V.Dombrovsky, J.Zhou, J.Tiana, A.Thakkar, A.MacKay, B.Grechuk, S.Geissel⁵ kabi xorijiy olimlar tadqiqot olib borganlar.

Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan A.Richard, D.Schooley, E.Bronshtein, E.Spuchakova, Y.Kitanov, D.Barro, X.Huang va W.Kangpinglarni⁶ keltirish mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullayeva, N.X.Xaydarov, B.E.Tashmuradova, J.N.Jumayev, F.Mirzayev, R.X.Karlibayeva, S.E.Elmirzayev, A.X.Islamkulov, K.D.Karimova, K.U.Sharifxodjayeva, F.T.Muxamedov, X.N.Xasanov, U.R.Xalikov, X.X.Xudoyqulov, O.N.Hamdamlarning⁷ ilmiy

⁴ Markowitz H. (1952) Portfolio Selection // *Journal of Finance*. Vol. 7, Iss. 1, 71–91 p; Sharpe W. (1964) Capital Asset Prices: A theory of market equilibrium under conditions of risk // *The Journal of Finance*. Vol. 19, Iss. 3, P. 425–442 p; ⁴ Merton R.C. (1969) Portfolio selection under uncertainty: the continuous-time case // *The Review of Economics and Statistics*. Vol. 51, Iss.3, 247–257 p; Lintner J. (1965) The valuation of risky assets and the selection of risky investments in stock portfolios and capital budgets // *Review of Economics and Statistics*. Vol. 47. P. 13–37p; Fama E. F. (1965) Portfolio analysis in a stable Paretian market // *Management Science*. Vol.11, Iss. 3, 409–419p; Samuelson P. (1969) Lifetime portfolio selection by dynamic stochastic programming // *Review of Economics and Statistics*. Vol. 51, Iss. 3, 239–246p; Li Z.F., Yang H., Deng X.T. (2007) Optimal Dynamic Portfolio Selection with Earnings-at-Risk // *J Optim Theory Appl* 132: 459–473p; Ghahtarani A., Saif A., Ghasemi A. (2022) Robust portfolio selection problems: a comprehensive review // *Operational Research*. vol. 22(4), 3203–3264 p.

⁵ Dombrovsky V.V., Dombrovsky D.V., Lyashenko E.A. (2006) Model Predictive Control of Systems with Random Dependent Parameters under Constraints and its Application to the Investment Portfolio Optimization. published in *Avtomatika i Telemekhanika*. No.12; Zhou J., Li X., Kar S., Zhang G., Haitao Yu. (2017) Time consistent fuzzy multi-period rolling portfolio optimization with adaptive risk aversion factor // *J Ambient Intell Human Comput*; Tiana J., Zha K. (2020) Optimal selection of financial risk investment portfolio based on random matrix method // *Journal of Computational Methods in Sciences and Engineering*; Thakkar A., Chaudhari K. A (2021) Comprehensive Survey on Portfolio Optimization, Stock Price and Trend Prediction Using Particle Swarm Optimization // *Archives of Computational Methods in Engineering*; MacKay A., Oejo A. (2022) Portfolio Optimization With a Guaranteed Minimum Maturity Benefit and Risk-Adjusted Fees // *Methodology and Computing in Applied Probability*; Grechuk B., Hao D. (2022) Individual and cooperative portfolio optimization as linear program // *Optimization Letters*; Geissel S., Graf H., Herbinger J., Seifried F. (2022) Portfolio optimization with optimal expected utility risk measures // *Annals of Operations Research* 309:59–77.

⁶ Richard A., Wilbur G. (1975) Lewellen, Ronald C. Lease, and Gary G. Schlarbaum. Individual investor risk aversion and investment portfolio composition // *The journal of finance*, vol. XXX, No.2; Schooley D., Drecnik D. Worden. (1996) Risk Aversion Measures: Comparing Attitudes and Asset Allocation // *Financial services review*, S(2): 87-99; E.M.Bronshtein, M. Kachkaeva, and E. V. Tulupova. Control of investment portfolio based on complex quantile risk measures // *Journal of Computer and Systems Sciences International*, 2011, Vol. 50, No. 1, 174–180 p.; Spuchakova E., Michalikova K., Misankova M. (2015) Risk of the Collective Investment and Investment Portfolio // 4th World Conference on Business, Economics and Management, WCBEM // *Procedia Economics and Finance* 26, 167–173 p.; Kitanov Y. (2016) Portfolio investment risks: typology and mitigation // *Journal of International Scientific Publications* // Volume 10; Barro D., Canestrelli E., Consigli G. (2019) Volatility versus downside risk: performance protection in dynamic portfolio strategies // *Comput Manag Science* 16:433–479; Huang X., Jiang G. (2021) Portfolio management with background risk under uncertain mean-variance utility // *Fuzzy Optimization and Decision Making* 20:315–330; Kangping W. (2022), Utility basis of consumption and investment decisions in a risk environment // *Acta Mathematica Scientia*, 42B(6): 2377–2398 p;

⁷ Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash: i.f.d.diss.avtoref.-T:BMA, 2000; Xaydarov N. Investitsiya va innovatsiyalarning rivojlanishida investitsiya muhitining tutgan o‘rni // *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar* № 2 (22), 2023; Jumayev N.X., Ataniyazov J.X., Alimardonov E.D. Xalqaro valyuta munosabatlari. Darslik, T: 2022; Karimova K.D. Kichik biznes korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda risklarni boshqarish. I.f.n. dis.avtoref.T:2008; Sharifxodjayeva K.U. Risklarni kichik biznes korxonalarini foydasiga ta‘sirini baholash va kamaytirish. Iq. I.f.n. dis.avtoref. T:2010; Toshmurodova B.E. Moliyaviy menejment. Darslik. T.:Iqtisod-moliya,2014; Islamkulov A.X., Sharifxodjayeva K.U., Sattarov B.K. Moliyaviy risklarni boshqarish: O‘quv qo‘llanma /–T.:“Iqtisod-Moliya”, 2017; Karlibayeva R.X.. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo‘llari. I.f.d.diss.avtoreferati. T.,2018; Elmirezayev S.E. va boshqalar. Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik – T.:2023; Muxamedov F.T. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishlari. DSc. dis.avtoref. T:2019; Xasanov X.N. Iqtisodiyotning korporativ sektoriga kapital

tadqiqot ishlarida kapital qiymatini baholash, moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlari o'rganilgan.

So'ngi yillarda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ularning kapital qiymatini baholash hamda fond bozori faoliyatining moliyaviy mexanizmini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar faolligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Biroq, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish, investitsiya portfelini optimallashtirish muammolari, investitsiya portfeli shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash modellari, investitsiya portfelini shakllantirishda tizimli va tizimsiz risklarning ahamiyati hamda investitsiya portfelini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi milliy fond bozoridagi mavjud muammolar atroflicha tadqiq etilmagan. Ushbu dolzarb masalalarning ilmiy yechimini topish dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishini Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarining nazariy qarashlarini o'rganish asosida muallif yondashuvini ishlab chiqish;

optimal investitsiya portfeli shakllantirishning chiziqli va chiziqsiz modellarini o'rganish;

investitsiya portfelini optimallashtirish muammolarini o'rganish;

optimal investitsiya portfeli shakllantirishda moliyaviy risklarni baholashning statistik va kvantilli modellarini o'rganish. Shuningdek, ulardan foydalangan holda investitsiya portfeli riskini baholash;

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalaridan iborat bo'lgan diversifikatsiyalangan investitsiya portfelini shakllantirish;

optimal diversifikatsiyalangan moliyaviy instrumentlar kombinatsiyasidan iborat investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash metodlaridan foydalanish;

bozordan moliyaviy resurslarni jalb qilish.PhD. dis.avtoref.T:2020; Xalikov U.R. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish.PhD.dis.avtoref.T:2017; Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish. DSc. dis.avtoref.T:2021; Hamdamov O.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish. DSc. dis.avtoref. T:2023

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni aniqlash maqsadida har bir moliyaviy instrumentga taʼsir qiluvchi ichki va tashqi omillarni empirik tahlil qilish;

investitsiya portfelini shakllantirishda yuzaga keladigan fond bozoridagi mavjud muammolarni oʻrganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodlaridan boʻlgan hedjirlash amaliyotini oʻrganish;

GARCH va ARIMA modellaridan foydalangan holda investitsiya portfeli daromadlilikini oʻrta muddatli prognoz qilish.

Tadqiqotning obyekti boʻlib Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan real sektor korxonalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti boʻlib investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini shakllantirishda yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida iqtisodiy voqelik jarayonlarini oʻrganishning ilmiy usullari – umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, induksiya, deduksiya, abstrakt mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, MGARCH, GARCH, ARIMA, FE, RE, PLS va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korxonalar operatsion xarajatlarini optimallashtirish maqsadida “T+2” modelini joriy qilish orqali yangi defolt (risk) boshqaruv tizimini qoʻllanishini yana bir kunga uzaytirish taklif etilgan;

davlat qimmatli qogʻozlari bilan savdolar amalga oshirilganda qimmatli qogʻozlar va pul mablagʻlarini oldindan depozitga qoʻyish talablarini bekor qilish va yangi hisob-kitoblar (kliring) modelining bir qismi sifatida risk boshqaruvi amaliyotini joriy etish taklif etilgan;

xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish hamda minoritar aksiyadorlar hajmini kengaytirish maqsadida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablagʻlarning bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja qimmatli qogʻozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish taklif etilgan;

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni samarali boshqarish maqsadida oʻz xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP) ni joriy etishda hedjirlash metodlaridan boʻlgan opsiya shartnomasidan foydalanish ilmiy asoslangan;

qimmatli qogʻozlar chiqarishni roʻyxatdan oʻtkazish tartibini soddalashtirish orqali qimmatli qogʻozlar bozorida savdo hajmini oshirishga hamda kapital bozoriga minoritar investorlarni yanada keng jalb qilishga erishish maqsadida qimmatli qogʻozlarni roʻyxatdan oʻtkazishda “qutida roʻyxatga olish” (shelf-registration) amaliyotini joriy etish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning chiziqli va chiziqsiz modellari asosida investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasi takomillashtirilgan;

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash modellari tahlil qilingan hamda ularga sozlangan optimal diversifikatsiyalangan investitsiya portfeli shakllantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan real sektor korxonalarining aksiyalarining moliyaviy risk darajasi baholangan, ularning daromadligiga ta’sir qiluvchi asosiy ichki va tashqi omillar aniqlangan;

qimmatli qog‘ozlar chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini soddalashtirish orqali qimmatli qog‘ozlar bozorida savdo hajmini oshirishga hamda kapital bozoriga minoritar investorlarni yanada keng jalb qilishga erishish maqsadida yangi hisob-kitoblar (kliring) modelining bir qismi sifatida risk boshqaruvi amaliyoti ishlab chiqilgan;

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni diversifikatsiyalash maqsadida o‘z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP) ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishni takomillashtirish, investitsiya portfelining moliyaviy risk darajasini baholashning zamonaviy instrumentlarni joriy etish imkoniyatlari, investitsiya portfelini optimallashtirishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va tadqiqot ishlarini o‘rganish, ilg‘or xorij tajribasini tadqiq etish va umumlashtirish, foydalanilgan ma‘lumotlarning xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalariga va milliy darajada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “Toshkent” Respublika fond birjasi, Korporativ axborot yagona portali va aksiyadorlik jamiyatlari statistik ko‘rsatkichlariga asoslanganligi hamda tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ulardan investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda fundamental asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lib, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish yo‘li bilan diversifikatsiyalangan optimal investitsiya portfelini shakllantirish va investitsiya portfelini optimallashtirish muammosini yumshatish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar va takliflar asosida:

korxonalar operatsion xarajatlarini optimallashtirish maqsadida “T+2” modelini joriy qilish orqali yangi defolt (risk) boshqaruv tizimini qo‘llanishini yana bir kunga uzaytirishga doir taklifi “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda va O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi PQ-291 sonli qarorining 4-ilovasi 2023-2025 yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqishda foydalanilgan ("Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-noyabrdagi 01-256-sonli va O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 28-yanvardagi 03/09-1-19/389-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan qo'shimcha operatsion xarajatlarini 10-15 foizgacha optimallashtirishga erishilgan;

davlat qimmatli qog'ozlari bilan savdolar amalga oshirilganda qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larini oldindan depozitga qo'yish talablarini bekor qilish va yangi hisob-kitoblar (kliring) modelining bir qismi sifatida risk boshqaruvi amaliyotini joriy etish doir taklifi amaliyotda foydalanish uchun qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2 sentyabrdagi PQ-291 sonli qarorining 4-ilovasi 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 28-yanvardagi 03/09-1-19/389-sonli va "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-noyabrdagi 01-256-sonli ma'lumotnomalari) Shuningdek, mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlarini qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq talablarni yengillashtirish bilan birga pul oqimlari tarkibini optimallashtirish orqali risk boshqaruvi mexanizmini takomillashtirishga erishildi;

xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish hamda minoritar aksiyadorlar hajmini kengaytirish maqsadida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag'larning bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish taklifi amaliyotda foydalanish uchun qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291 sonli qarorining 4-ilovasi 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqishda foylanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 28-yanvardagi 03/09-1-19/389-sonli va "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-noyabrdagi 01-256-sonli ma'lumotnomalari). Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarini qimmatli qog'ozlar bozorida savdo hajmini yanada oshirish maqsadida qo'shimcha moliyaviy instrumentlarni uyushgan savdolarida joylashtirildi;

investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni samarali boshqarish maqsadida o'z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP) ni joriy etishda hedjirlash metodlaridan bo'lgan opsion shartnomasidan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan "Aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini joriy etish tartibi to'g'risidagi" Nizomni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 28-yanvardagi 03/09-1-19/389-sonli ma'lumotnomasi) Xususan, mazkur taklif asosida investitsiya

portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni samarali boshqarish uchun opsiya qiymatini hisoblashda Blek-Shoulz modelidan foydalanish taklifi asoslangan;

qimmatli qog'ozlar chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorida savdo hajmini oshirishga hamda kapital bozoriga minoritar investorlarni yanada keng jalb qilishga erishish maqsadida qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazishda «qutida ro'yxatga olish» (shelf-registration) amaliyotini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 28-yanvardagi 03/09-1-19/389-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 4 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xalqaro anjumanlarda himoya qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 239 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bobida investitsiya portfeli tushunchasi, unga berilgan ta'riflar olimlar yondashuvlari, investitsiya portfelini shakllantirish turlari, strategiyalari, boshqarish yondashuvlari hamda investitsiya portfelining optimallashtirish muammosi ko'rib chiqilgan.

Investitsiya portfeli tushunchasiga iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari quyidagi jadvalda keltirilgan. (1-jadvalga qarang)

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, investitsiya portfeli deganda, investorlar risk “ishtahasi” ga ko'ra shakllantirilgan investitsiya aktivlari majmuiga aytiladi.

Birinchilardan bo'lib, investitsiya portfelini shakllantirish, aksiya narxlarining shakllanishiga o'z fikr-mulohazalari va qarashlarini nazariy jihatdan asoslagan olim J.M.Keyns hisoblanadi. Undan so'ng, investitsiya portfelini shakllanishini chiziqli modellari rivojlandi, ulardan “Samarali bozor gipotezasi” mashhur bo'lib, u moliya bozorining ideal holatini tavsiflaydi. Shuningdek, moliya bozori faoliyatining

qoidalari va moliyaviy instrumentlarning bahosini tebranish jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

1-jadval

Investitsiya portfelni tushunchasiga nazariy qarashlar⁸

Olim	Ta'rif
F.Fabozi	bu investor o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda, shakllantirgan moliyaviy instrumentlar to'plami. ⁹
N.Dmitriev	moliyaviy maqsadga erishishga qaratilgan turli xil investitsiya aktivlari to'plami. ¹⁰
Z.Abdullayeva	investorga kerakli daromad olishga yordam beradigan turli xil investitsiya vositalari to'plami. ¹¹
T.Ban	Umumiy boshqaruv obyekti sifatida qaraladigan investorning investitsiya maqsadlariga mos keluvchi aktivlarning majmui ¹²
E.Torsen	bu aktivlarning kombinatsiyasi. ¹³
A.Zibin	maksimal foyda olish yoki risklarni diversifikatsiya qilish uchun investor turli nisbatlarda tanlaydigan moliyaviy va real aktivlar to'plami. ¹⁴
E.Shamanaev	qimmatli qog'ozlar (turli tur, muddat va turli darajadagi likvidlik) va boshqa aktivlar yig'indisi bo'lib, ular birgalikda yig'ilgan va bir butun sifatida boshqariladi. ¹⁵
R.Kovalyov	bu bir butun sifatida boshqariladigan har xil muddat, tur va likvidlikdagi turli xil moliyaviy aktivlar yig'indisi. ¹⁶
V.Bocharov	Investorning moliyaviy aktivlarining yig'indisi ¹⁷

Keyinchalik, ushbu gipoteza G.Markovitsning "Zamonaviy portfel nazariyasi", U.Sharpsning "Kapital aktivlarini baholash modeli", R.Mertonning "Opsionlarni baholash modeli", S.Rossning "Arbitraj baholash nazariyasi" kabi neoklassik moliyaviy nazariyaning asosi bo'lib xizmat qilgan. Ushbu nazariyalar investitsiya portfelini shakllantirishning chiziqli modelini takomillashiga olib keldi. XX asrning 70-yillaridan boshlab chiziqli modellar to'laqonli rivojlanishiga ulgurmay, bir vaqtning o'zida uning haqqoniyligiga shubha bilan qarash boshlanib, bir qancha konsepsiyalar ishlab chiqildi. (2-jadvalga qarang)

Portfelni optimallashtirish investorning maqsadlarini aks ettiruvchi ba'zi maqsadlarga nisbatan moliyaviy aktivlar to'plami o'rtasida boylikning eng yaxshi taqsimlanishini topish uchun matematik optimallashtirish usullaridan foydalanishdir.¹⁸ Investitsiya portfelini optimallashtirish muammosi moliya fanida markaziy o'rinni egallaydigan, investitsiya portfelini samarali shakllantirishda

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁹ Фабоцци Ф. Управление инвестициями: Пер.с англ. —М.:ИНФРА-М,2000.—XXVIII, 932 с. — (Серия «Университетский учебник»).

¹⁰ Дмитриев Н.Д., Тихонова М.В. Формирование инвестиционного портфеля. Стратегия бизнеса. // № 05 (61) 2019

¹¹ Abdulaeva Z.M. Concept, principles and stages of investment portfolio formation / Z.M. Abdulaeva, E.A. Yandarov // GGNTU Bulletin. Humanities and socio-economic sciences No. 3 (17), 2019. P. 5-9 — URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42492387>

¹² Бан Т.М. Эффективность инвестиционного портфеля. Экономика. №1 2008. 14-стр

¹³ Thorsén E.. (2022) Optimal portfolios in the high-dimensional setting Estimation and assessment of uncertainty//Academic dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy in Mathematical Statistics at Stockholm University.

¹⁴ Зыбин А.А. (2016) Понятие, типы и цели формирования инвестиционного портфеля // Концепт. №1. – С. 121

¹⁵ Шаманаев Е.Д., Разумовская Е.А. (2021) К вопросу о формировании инвестиционного портфеля. © INO "Institution of Forensic Construction and Technological Expertise", DOI 10.51608/26867818_2021_1_46

¹⁶ Ковалев Р.В. (2022) Формирование и управление инвестиционным портфелем// International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 8-3 (71)

¹⁷ Бочаров В.В. (2008) Финансовый менеджмент. М.: Омега-Л,

¹⁸ Martensson A., Gartner E.F. (2023) Robust Portfolio Optimization// Degree Project. KTH Royal Institute of technology. Stockholm, Sweden

moliyaviy risklarni boshqarish muammosini hal etishga qaratilgan masala hisoblanadi. Ushbu muammo asosan moliyaviy risk va daromad o'rtasida optimal chegarani topish hamda indeksni kuzatish muammolarini o'z ichiga oladi.

2-jadval

Investitsiya portfelini shakllantirishning chiziqsiz modellari¹⁹

Gipoteza	Asoschisi	Mohiyati
Refleksivlik	J.Soros (1987)	Moliyaviy instrumentlarning narxi investorlar qabul qilgan qarorlariga bog'liqligini ta'kidlaydi.
“Shovqinli savdo”	Shleifer va Summers (1990) ²⁰	Moliyaviy bozorlarda investorlarning hissiy reaksiyalari, kayfiyati va kognitiv tarafkashliklarini tushunish muhimligini ta'kidlaydi.
Kogerent bozor	T.Vaga (1990) ²¹	Moliyadagi modellashtirish va chiziqsiz dinamikani tushunish zaruratini ko'rsatadi.
Fraktal bozor	E.Peters (1994) ²²	Investorlar bir xil (homogeneous) emas, balki “investitsiya ufq” ²³ ga qarab turlicha (heterogeneous) ekanligini tushunish zaruratini ko'rsatdi
Heterojen bozor	U.Muller (1995) ²⁴	Bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlaridagi xilma-xillik moliyaviy bozorlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashini taklif qiladi.
Moslashuvchan bozor	E.Lo (2004) ²⁵	Bozor samaradorligi statik emas, balki har qanday vaqtda turli manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro raqobat va ta'sirga qarab dinamik ekanligini tushunish zaruratini ko'rsatdi.
Kashf qiluvchi bozor	Kleinxayer (2020) ²⁶	Moliyaviy aktivlar narxini shakllantirishda rivoyatlarning o'zini muhimligini ta'kidlaydi.
Yangilik-rivoyat	N.Mangi (2021) ²⁷	Yangi hodisaga duchor bo'lgan muhitda axborotning rolini tushunish zaruratini ko'rsatdi.
Subyektivlik bozori	R.Bocher (2022) ²⁸	Empirik moliyaga multidisiplinar yondashuvi, xususan, ekonofizika usullarini qo'llash zaruratini ko'rsatdi.

Xulosa qilib, ushbu bobda investitsiya portfelini shakllantirishning chiziqli va chiziqsiz modellari hamda investitsiya portfelini optimallashtirish muammolari ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish statistik va kvantilli modellari hamda moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilgan. Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklar ikki katta guruhga bo'linadi: tizimli va tizimsiz.

Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash ikkita katta guruhga ajratish taklif qilingan: o'zgaruvchanlikka asoslangan (volatility-based) va kvantillarga asoslangan (quantile-based).

¹⁹ Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²⁰ Shleifer A., Summers L.(1990)The noise trader approach to finance//The Journal of Economic Pers.,Vol.4 No.2,pp.19-33.

²¹ Vaga T., (1990) The coherent market hypothesis//Financial Analysts Journal, Vol. 46 No. 6, pp. 36-49.

²² Peters E.E. (1994) Fractal Market Analysis: Applying Chaos Theory to Investment and Economics, 1st ed., Wiley, New York.

²³ Investitsion ufq investor investitsiya qilishni kutayotgan vaqtni yoki investitsiya qilish orqali moliyaviy maqsadlariga erishishni rejalashtirgan vaqtni anglatadi.

²⁴ Muller U.A., Dacorogna M.M., Dav R.D., Pictet O.V., Olsen R.B., Ward J.R. (1995) Fractals and intrinsic time: a challenge to econometricians//Discussion Paper Presented at the 1993 International Conference of the Applied Econometrics Association, Olsen & Associates, Ascona

²⁵ Lo. A.W. (2004) The adaptive markets hypothesis//The Journal of Portfolio Management, Vol. 30 No. 5, pp. 15-29

²⁶ Kleinheyer M., Mayer T. (2020) Discovering markets//Quarterly Journal of Austrian Economics, Vol. 23 No. 1, pp. 3-32

²⁷ Mangee N. (2021) How Novelty and Narratives Drive the Stock Market: Black Swans, Animal Spirits and Scapegoats, Cambridge University Press, New York, NY.

²⁸ Bocher R. (2022) The intersubjective markets hypothesis// Journal of Interdisciplinary Economics, Vol. 34 No. 1, pp. 35-50

Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholashning statistik modellari variatsiya ko'rsatkichlariga asoslangan guruhlar tizimiga kiradi. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi ikki katta guruhga bo'linadi, ular: mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar. (3-jadvalga qarang)

3-jadval

Moliyaviy risklarni baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi²⁹

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar turi	Ko'rsatkichlar tabiati	
		Nisbiy	Mutloq
O'rtacha arifmetik qaytim	Daromadlilik		+
Standart cheklanish	Risk		+
Beta koeffitsiyenti	Daromadlilik / Risk	+	
Omega koeffitsiyenti	Daromadlilik / Risk	+	
Sharp koeffitsiyenti	Daromadlilik / Risk	+	
Treynor koeffitsiyenti	Daromadlilik / Risk	+	
Jensen indeksi (alfa)	Daromadlilik		+
Modigliani koeffitsiyenti (M2)	Daromadlilik / Risk	+	
Sortino koeffitsiyenti	Daromadlilik / Risk	+	

Ushbu moliyaviy risklarni inobatga olgan holda investitsiya portfelini samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlarning aksariyati bir konsepsiya ostida birlashgan, ya'ni barchasi korxonada aksiyasining daromadlilik bozor daromadligidan yuqori hisoblangan ortiqcha daromadni ma'lum bir moliyaviy risk o'lchoviga bo'lish orqali topiladi. Optimal investitsiya portfelini shakllantirish uchun ushbu ko'rsatkichlarni maksimallashtirish, yoxud maksimal qiymatga ega bo'lgan investitsiya portfelini tanlash joiz.

Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholashning kvantilli usullariga risk ostidagi qiymatni baholash yondashuvlari kiritilib, ularga quyidagilar kiradi: (4-jadvalga qarang)

4-jadval

Moliyaviy risklarni baholashning kvantilli modellarini taqqoslama jadvali²⁹

Belgi	VaR	CVaR	Iso-entropy
Asoschisi	F.Jorion ³⁰	R.Rockafellar va S.Uryasev ³¹	Y.Chen va C.Zheng ³²
Yil	1980	2000	2012
Qavariqligi	-	+	+
Ma'lumot hajmi	Bir kvantil ma'lumot	Taqsimotning 2 ta mahalliy ma'lumotlari	Riskning butun taqsimoti haqida ma'lumotlar
Stoxastik ustunlik	Faqat birinchi darajali stoxastik ustunlikka mos keladi	Birinchi va ikkinchi darajali stoxastik ustunlikka mos keladi	Barcha darajali stoxastik ustunlikka mos keladi
Subadditivlik	-	+	+

Ularga Value at-Risk (VaR) va uning modifikatsiyalangan barcha muvofiq risk o'lchovlari xususiyatlarini to'liq qanoatlantiruvchi Conditional Value at-Risk

²⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

³⁰ Jorion P. (2001) Value at Risk (book style). 2nd Edition. New York: McGraw-Hill

³¹ Rockafellar R. T., Uryasev S. P. (2000) Optimization of conditional value-at-risk. Journal of Risk 2:21-42,

³² Zheng C., Chen Y. (2012). Coherent risk measure based on relative entropy. Applied Math. Inform. Sei, 6: 233-238.

(CVaR) metodologiyalari hamda Chen va Zheng tomonidan taklif etilgan risk ostidagi qiymat usullari kamchiliklarini bartaraf etuvchi iso-entropik metodologiyalari kiradi.

Xulosa qilib, investitsiya portfelni optimallashtirishda VaR va CVaR metodologiyalari nazariy va amaliy qo'llanishini empirik jihatidan iqtisodchi olimlar tomonidan keng tatbiq etilgan yo'nalish sifatida qaralsa, iso-entropik risk o'lchovi nisbatan yosh yo'nalish bo'lganligi sababli mualliflarining fikriga ko'ra, uni yana kapitalni taqsimlash, baholash va hedjirlash, optimal portfel shakllantirish va muvozanatlash kabi muammolar yuzasidan nazariy hamda empirik tadqiqotlar olib borilishi kerak.³³

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash”** amaliyoti tahlil qilingan bo'lib, unda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yettita real sektor korxonalarining aksiyalari asosida tashkil topgan investitsiya portfelining moliyaviy risklari statistik va kvantilli modellardan foydalangan holda baholangan hamda aksiyalarining daromadligiga tizimli va tizimsiz risklarining ta'siri ekonometrik tahlil qilingan. Ma'lumotlarda aniqlik darajasini oshirish hamda moliyaviy risklarni to'g'ri aniqlash uchun tadqiqot davrini uch bosqichga ajratilgan, ya'ni: pandemiyadan oldingi uch yillik; pandemiya davridagi uch yillik; uchinchi bosqich bu pandemiyadan keyingi davr.

Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda investitsiya portfeliga kiritiluvchi moliyaviy instrumentlarning moliyaviy risk darajalari va portfel samaradorligi ko'rsatkichlari baholangan. (5-jadvalga qarang) Ushbu jadval ma'lumotlarida ko'ra, barcha o'rganilayotgan obyektlarning beta koeffitsiyenti -1 va 1 oralig'ida bo'lgan. Demak, ushbu aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risk darajasi past va konservativ investitsiya portfelini shakllantiruvchilar tomonidan tanlanadi hamda korxonalar aksiya daromadligiga bozor daromadligiga qaraganda kamroq tebranuvchanlik (volatillik) ka ega. Ammo bu yerda, -1 va 0 oralig'ida bo'lgan beta fond bozori bilan teskari harakatlansa, 0 va 1 oralig'idagi beta bozor indeksi bilan bir yo'nalishda harakatlanishini bildiradi, ya'ni UCI ko'rsatkichi oshsa, aksiya daromadligi ham oshadi. Pandemiyadan oldingi davrda, UZMK va AGMK korxonalaridan tashqari barcha aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya daromadligi bozor daromadligiga qaraganda teskari yo'nalishga harakatlanadi. Misol uchun, KUMZ beta ko'rsatkichi -0.28 ni tashkil etgan, bunda bozor daromadligi 1 foizga oshsa, KUMZ aksiya daromadligi 0.28 darajaga pasayadi va aksincha. Shunda ham ushbu ko'rsatkich juda pastligigacha qolmoqda, bu moliyaviy risk darajasi pastligidan dalolat beradi. II bosqichda esa, barcha korxonalarining beta ko'rsatkichi musbat natija qayd etgan. Demak, korxonalar aksiyalari daromadligi bozor daromadligi bilan bir yo'nalishda harakat qilgan. E'tiborli jihati, ushbu davrda KVTS korxonasining beta koeffitsiyenti 0 ga teng bo'lgan. Demak, ushbu korxonaning aksiya daromadligi harakati bozor daromadligiga bog'liq emas.

³³ Zheng C., Chen Y. (2012). Coherent risk measure based on relative entropy//Applied Math. Inform. Sei, 6: 233-238.

Aksiyalarning moliyaviy risk darajasini baholash (oylik)³⁴

AJ	D	KVTS	QZSM	KUMZ	UZMK	AGMK	TNGK	KYEZ	UCI
O'rtacha daromad	I	4.37%	0.41%	1.04%	8.33%	6.69%	37.24%	9.22%	0.04%
	II	0.12%	2.66%	-1.04%	-0.84%	-0.22%	13.40%	-0.25%	-0.5%
	III	-4.29%	-2.11%	-2.92%	-2.06%	-1.84%	9.85%	-5.67%	4.46%
Standart chetlanish	I	28.92%	8.62%	9.63%	38.00%	22.68%	134.5%	49.9%	17.7%
	II	7.50%	10.92%	3.67%	18.08%	12.18%	66.83%	16.73%	13.6%
	III	6.17%	3.76%	6.71%	4.94%	3.27%	35.37%	5.64%	8.47%
Ortiqcha o'rtacha daromad	I	3.84%	-0.12%	0.52%	7.80%	6.16%	36.71%	8.70%	-0.5%
	II	-0.08%	2.45%	-1.25%	-1.04%	-0.43%	13.19%	-0.45%	-0.7%
	III	-4.82%	-2.64%	-3.44%	-2.58%	-2.36%	9.32%	-6.19%	3.94%
Ortiqcha st.chetlanish	I	29.89%	10.96%	10.78%	38.88%	23.85%	135.1%	49.86%	19.8%
	II	9.53%	12.65%	6.36%	18.68%	13.59%	66.43%	16.79%	14.1%
	III	11.66%	9.08%	10.35%	10.02%	7.67%	35.01%	11.22%	13.5%
Pasayish riski	I	9.19%	6.08%	5.76%	6.79%	10.13%	23.26%	8.35%	
	II	4.40%	5.59%	3.41%	18.05%	8.54%	24.83%	10.20%	
	III	12.05%	7.28%	7.25%	8.32%	6.97%	9.73%	10.33%	
Beta	I	-0.101	-0.070	-0.284	0.179	0.012	-0.025	-0.076	1
	II	0.003	0.167	0.016	0.375	0.092	0.285	0.360	1
	III	0.292	0.055	0.316	0.340	-0.190	2.198	0.176	1
Sharp	I	0.13	-0.01	0.05	0.20	0.26	0.27	0.17	-0.02
	II	-0.01	0.19	-0.20	-0.06	-0.03	0.20	-0.03	-0.05
	III	-0.41	-0.29	-0.33	-0.26	-0.31	0.27	-0.55	0.29
Treyrnor	I	-0.382	0.017	-0.018	0.435	5.116	-14.595	-1.152	-0.005
	II	-0.272	0.147	-0.786	-0.028	-0.046	0.462	-0.012	-0.007
	III	-0.165	-0.479	-0.109	-0.076	0.124	0.042	-0.352	0.039
Jensen (alfa)	I	0.038	-0.002	0.004	0.079	0.062	0.367	0.087	
	II	-0.001	0.026	-0.012	-0.008	-0.004	0.134	-0.002	
	III	-0.060	-0.029	-0.047	-0.039	-0.016	0.007	-0.069	
M2	I	2.83%	0.25%	1.43%	4.11%	5.28%	5.31%	3.56%	
	II	0.58%	3.79%	-3.91%	-0.06%	0.25%	3.41%	0.36%	
	III	-10.6%	-9.88%	-8.28%	-8.38%	-10.1%	-1.71%	-13.3%	
Sortino	I	0.418	-0.019	0.090	1.148	0.608	1.578	1.042	
	II	-0.018	0.439	-0.366	-0.058	-0.050	0.531	-0.044	
	III	-0.400	-0.362	-0.474	-0.311	-0.338	0.958	-0.600	

Ushbu davrda eng yuqori ko'rsatkich KYEZ korxonasi qayd etildi, uning beta koeffitsiyenti 0.38 ni tashkil etgan, shunda bozor daromadligi 1 foiz oshganda, KYEZ ning aksiya daromadligi 0.38 foizga o'sgan. III bosqichda esa, AGMK aksiyadorlik jamiyatidan tashqari barcha korxonalarining beta ko'rsatkichi musbat natija qayd etgan. Bu yerda, eng ko'zga ko'ringan jihat bu TNGK korxonasi beta ko'rsatkichi tadqiq etilayotgan davrda birinchi marta 2.2 ko'rsatkich qayd etgan

³⁴ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

yagona aksiyadorlik jamiyati bo'lgan. Demak, ushbu korxonada moliyaviy risk darajasi baland, riskka beriluvchi agressiv investorlar tomonidan boshqariladi hamda korxonada daromadliligi bozor daromadligiga kuchli bog'lanib, bir tomonlama harakat qilgan. Ya'ni, aksiya daromadliligi bozor daromadliligiga qaraganda ikki karra yuqori harakatlangan.

Quyidagi jadvalda o'rganilayotgan korxonalarining kunlik VaR va CVaR ko'rsatkichlari hisoblandi. (6-jadvalga qarang)

6-jadval

Aksiyalarning VaR va CVaR qiymatlari (%)³⁵

AJ	Bosqich	I			II			II		
	Ishonch daraja	90%	95%	99%	90%	95%	99%	90%	95%	99%
	Z-stat	-1.28	-1.64	-2.33	-1.28	-1.64	-2.33	-1.28	-1.64	-2.33
KVTS	VaR(tarixiy)	2.76	6.32	12.33	3.34	4.35	6.34	4.67	6.16	9.60
	VaR(tahliliy)	14.2	18.44	26.23	3.76	4.84	6.86	4.63	5.87	8.20
	CVaR(tarixiy)	6.72	9.61	14.19	4.72	5.56	7.45	6.40	7.55	9.90
	CVaR(tahliliy)	19.16	22.35	27.66	5.02	5.85	7.23	6.08	7.04	8.63
QZSM	VaR(tarixiy)	1.76	3.87	14.06	3.93	5.40	11.23	4.56	6.36	10.55
	VaR(tahliliy)	4.90	6.30	8.95	4.71	6.10	8.69	5.04	6.43	9.05
	CVaR(tarixiy)	5.62	8.5	15.65	6.30	8.12	11.93	6.86	8.55	10.90
	CVaR(tahliliy)	6.55	7.63	9.43	6.34	7.40	9.16	6.67	7.74	9.53
KUMZ	VaR(tarixiy)	0.88	2.78	7.30	5.26	7.72	14.53	8.40	11.30	17.38
	VaR(tahliliy)	3.13	4.03	5.73	5.87	7.55	10.70	8.56	10.98	15.52
	CVaR(tarixiy)	3.14	4.58	7.82	8.87	11.44	17.08	12.10	14.46	18.48
	CVaR(tahliliy)	4.19	4.88	6.04	7.84	9.13	11.28	11.40	13.26	16.35
UZMK	VaR(tarixiy)	0.00	3.11	18.70	4.73	7.11	20.00	2.83	3.58	5.91
	VaR(tahliliy)	17.36	22.48	32.07	10.65	13.71	19.44	3.15	3.99	5.57
	CVaR(tarixiy)	5.50	10.91	19.35	8.44	11.30	20.00	3.83	4.52	6.14
	CVaR(tahliliy)	23.37	27.29	33.83	14.24	16.58	20.49	4.14	4.79	5.86
AGMK	VaR(tarixiy)	4.26	11.03	20.00	8.72	13.85	19.97	4.20	6.11	13.92
	VaR(tahliliy)	9.57	12.42	17.78	9.67	12.49	17.77	5.42	6.99	9.92
	CVaR(tarixiy)	11.87	17.16	26.23	14.01	17.04	20.89	7.42	10.00	15.03
	CVaR(tahliliy)	12.92	15.11	18.76	12.98	15.14	18.74	7.26	8.46	10.46
TNGK	VaR(tarixiy)	0.00	0.00	12.83	0.00	0.00	30.62	10.36	19.60	21.20
	VaR(tahliliy)	63.19	81.95	117.14	32.16	41.68	59.54	33.44	43.49	62.35
	CVaR(tarixiy)	2.22	4.43	22.09	7.24	14.48	52.18	20.34	25.21	46.34
	CVaR(tahliliy)	85.22	99.61	123.58	43.33	50.64	62.80	45.24	52.96	65.80
KYEZ	VaR(tarixiy)	0.00	0.00	13.22	9.37	19.78	40.65	7.62	11.99	16.41
	VaR(tahliliy)	17.47	22.59	32.19	19.78	25.64	36.62	8.35	10.71	15.14
	CVaR(tarixiy)	3.13	6.25	15.83	20.40	26.30	43.91	11.82	14.39	17.31
	CVaR(tahliliy)	23.48	27.41	33.95	26.66	31.15	38.63	11.12	12.93	15.95

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, I bosqichda eng past VaR ko'rsatkichi KUMZ korxonasida, II bosqichda fond indeksida va III bosqichda UZMK aksiyadorlik jamiyatida qayd etilgan. Xususan, I bosqichda 90 foiz ishonch darajasida KUMZ da VaR qiymati, tarixiy usul bilan hisoblaganda, 0.88 foizni tashkil etgan. Demak, KUMZ aksiyalari keyingi kunda eng maksimal yo'qotish darajasi 0.88 foizdan oshmaydi. Ushbu korxonada kvantilli modellari orqali

³⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

hisoblaganda ham, 90 foiz ishonch oralig'ida eng maksimum qiymat CVaR ning tahliliy usuliga ko'ra 4 foizni tashkil etgan. O'rganilayotgan korxonalarining eng maksimal yo'qotishni anglatuvchi, eng yuqori VaR qiymati uchala bosqichda ham TNGK korxonasida qayd etilgan. Xususan, ushbu korxonada I bosqichda 90 foiz ishonch oralig'ida tahliliy usulga ko'ra hisoblangan VaR qiymati 85 foizni tashkil etgan. Bu TNGK korxonasi keyingi kundagi aksiya daromadliligi eng yuqori yo'qotish sur'ati 85 foizni tashkil etishi mumkin degan xulosani beradi. Bunga asosiy sabab ushbu korxonaning aksiya kursi o'rganilayotgan davrlarda keskin tebranishlarga uchragani hisoblanadi.

Moliyaviy risk oqibatlari bilan kurashgandan ko'ra, uni keltirib chiqaruvchi sabablarining yuzaga kelishini oldini olish afzal. Shuning uchun investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning birinchi vazifalaridan bu ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, baholash va ularni vujudga keltiruvchi salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish hisoblanadi. Buning uchun, tizimli va tizimsiz risklarni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish talab etiladi

Quyidagi jadvalda korxonalar aksiya daromadligiga ta'sir etuvchi tizimli risklarning ta'sirini o'rganish uchun MGARCH DCC tahlili natijalari keltirilgan. (7-jadvalga qarang)

Ushbu jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, inflyatsiya darajasi to'rtta korxonalar (KVTS, QZSM, KUMZ va UZMK), M2 pul massasi ikkita (QZSM va UZMK), asosiy stavka faqat UZMK korxonasiga, pul bozori stavkasi uchta (QZSM, KUMZ va AGMK), depozit stavkasi faqat UZMK korxonasi uchun, kredit stavkasi QZSM va KUMZ hamda foyda solig'i KUMZ va TNGK aksiyadorlik jamiyatlari uchun statistik ahamiyatli deb topildi. E'tiborli jihati shundaki, inflyatsiya darajasi korxonalar aksiya daromadligiga nafaqat salbiy, balki ijobiy ta'siri aniqlangan. Xususan, KVTS, KUMZ va UZMK korxonalarining aksiya daromadligi inflyatsiyani 1 foizga oshganda, mos ravishda 0.03 foiz, 0.007 foiz va 0.04 foizga o'sishi aniqlandi. QZSM korxonasi aksiya daromadligi esa taxmin qilingan gipotezada o'zini oqlab, inflyatsiya 1 foiz oshganda, 0.02 foizga kamayishi aniqlandi. Ikki korxonalar aksiya daromadligini o'zgarishiga statistik ahamiyatli deb topilgan ko'rsatkichlardan, M2, kredit stavkasi va foyda solig'i bo'lgan. Shunga ko'ra, pul massasi (M2) taxmin qilingan gipoteza tasdiqlangan holda, aksiya daromadligi bilan salbiy bog'liqlik aniqlandi. Ya'ni, M2 ning 1 foizga ortishi QZSM va UZMK korxonasi aksiya daromadligini 0.4 foizga pasayishiga olib kelgan. Kredit stavkasi esa, QZSM korxonasi aksiya daromadligiga salbiy (-0.1) bog'liqlik aniqlangan bo'lsa, KUMZ korxonasi uchun ijobiy aloqador (0.2) deb topildi. Foyda solig'i, KUMZ aksiya daromadligi bilan ijobiy (0.2) va TNGK korxonasi bilan salbiy bog'liqlik aniqlandi. Qiziqarli jihati, TNGK aksiya daromadligi foyda solig'i bilan kuchli bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin, chunki foyda solig'ini 1 foizga ko'tarilishi, TNGK aksiya daromadligini 11.3 so'mga pasaytirishi aniqlangan.

7-jadval

MGARCH DCC tahlili natijasi³⁶

VARIABLES	KVTS	ARCH_ KVTS	QZSM	ARCH_ QZSM	KUMZ	ARCH_ KUMZ	UZMK	ARCH_ UZMK	AGMK	ARCH_ AGMK	TNGK	ARCH_ TNGK	KYEZ	ARCH_ KYEZ
INF	0.0272* (0.0146)		-0.0276*** (0.00114)		0.00671** (0.00278)		0.0466*** (0.00608)		0.00781 (0.0173)		-0.0885 (0)		0.0202 (0)	
M2	0.141 (0.281)		-0.386*** (0.0298)		-0.0342 (0.0607)		-0.374*** (0.118)		0.0873 (0.309)		-0.915 (0)		-0.138 (0)	
VK	-0.00760 (0.295)		-0.00119 (0.00487)		0.00126 (0.0139)		-0.0571 (0.0431)		0.137 (0.108)		-0.810 (0)		-0.889 (0)	
AS	0.172 (0.215)		-0.00354 (0.00578)		-0.000978 (0.0198)		0.0769* (0.0417)		0.197 (0.173)		-0.397 (1.575)		-0.514 (0)	
PS	-0.150 (0.139)		0.0420* (0.0217)		-0.0386* (0.0208)		-0.0377 (0.0540)		0.256* (0.144)		-1.414 (0)		-0.198 (0)	
DS	0.187 (0.181)		-0.0561 (0.0523)		0.00914 (0.0460)		-0.0985 *** (0.0381)		-0.0274 (0.160)		0.215 (0)		0.353 (0)	
KS	0.0171 (0.227)		-0.113* (0.0592)		0.261 *** (0.0464)		-0.0746 (0.106)		0.0928 (0.225)		0.731 (0)		0.105 (0)	
FS	0.129 (0.252)		-0.0788 (0.105)		0.218*** (0.0764)		0.0622 (0.0996)		-0.348 (0.541)		-11.26*** (1.194)		-1.657 (0)	
L.arch		-0.0504*** (0.00221)		2.180*** (0.494)		2.796*** (0.627)		4.991*** (1.328)		0.521*** (0.188)		-0.0514*** (1.59e-08)		-0.0152 (0)
L.garch		1.070 (0)		0.191*** (0.0520)		-0.0118 (0.00954)		0.0270 (0.0292)		0.513*** (0.113)		0.112 (0)		1.027 (0)
Constant		-3.95e-06 *		-4.52e-07 ***		-0.0146*** ***		0.000160		0.00264 0.00179		0.374		- 0.0223
Observations	90	90	90	90	90	90	90	90	90	90	90	90	90	90

Standard errors in parentheses

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

³⁶ Muallif tomonidan STATA 14 dan foydalanigan holda ishlab chiqilgan.

Ikki ko'rsatkich faqat UZMK korxonasi uchun statistik ahamiyatli bo'lgan, ulardan asosiy stavka bilan ijobiy aloqadorligi (0.07) aniqlangan bo'lsa, depozit stavkasi bilan salbiy aloqador (-0.09) deb topildi. Ushbu korxonalarining aksiya daromadligiga valyuta kursining tebranishining aloqadorligi statistik ahamiyatli deb topilmadi. Balki, bu korxonalarining asosiy iste'molchilari milliy hudud chegarasi bilan cheklanganligi bo'lishi mumkin.

Korxonalarining aksiya daromadligiga tizimsiz risklarning ta'siri moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili orqali aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari qimmatli qog'ozlar narxiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir.³⁷ Ushbu omillarga tayangan holda, tadqiqot amalga oshirishda quyidagi o'zgaruvchilar olindi: (8-jadvalga qarang)

8-jadval

Ichki omil ta'sirni aniqlash uchun tanlangan o'zgaruvchilar³⁸

Belgi	O'zgaruvchi	Formula	H
Qaram o'zgaruvchi			
AD	Aksiya daromadligi	$AD=r_2/ r_1-1$	
Erkin o'zgaruvchilar			
ROA	Aktiv rentabelligi (Return on Assets)	= Soliq to'langunga qadar foyda (Sh2 240 str) / Aktivlar o'rtacha arifmetik qiymati (A 400 str)	H ₁ (+)
ROE	Kapital rentabelligi (Return on equity)	= Soy foyda (Sh2 270 str) /Aksiyadorlik kapitali o'rtacha arifmetik qiymati (P 480)	H ₂ (+)
SR	To'lov qobiliyati (Solvency)	= Joriy aktivlar (A 390 str) / Majburiyatlar (P 770 str) - Uzoq muddatli majburiyatlar (P 490 str)	H ₃ (+)
NPM	Sof foyda marjasi (Net profit margin)	=Sof foyda (Sh2 270 str) / Daromad (Sh2 010 str)	H ₄ (+)
FL	Moliyaviy leverij	= Jami qarz mablag'lari (P 770str) / Jami kapital (P 480 str)	H ₅ (-)
CR	Joriy likvidlik (Current ratio)	= Joriy aktivlar (A 390 str) / Joriy majburiyatlar (P 600 str)	H ₆ (+)

Moliyaviy ko'rsatkichlarni aksiya daromadligiga ta'sirini o'rganish uchun panel ma'lumotlar bazasi yaratildi. Unda o'rganilayotgan yettita aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlaridan foydalangan holda 2016-yil I chorakda 2024-yil II chorakkacha bo'lgan choraklik moliyaviy ko'rsatkichlari hisoblandi. Panel ma'lumotlari bazasi kuchli balanslashmagan holda tashkil etildi. Chunki KYEZ korxonasi 2023-yildan boshlab ma'lumot taqdim etmagan. Ma'lumotlarning tahliliy statistikasi ko'rib chiqildi. Ushbu statistikaga ko'ra, o'rganilayotgan korxonalarining choraklik umumiy aksiya daromadligining eng kam miqdori -0.68 foizga teng bo'lgan bo'lsa, eng katta qiymati 0.7 foizni tashkil qilgan.

Quyidagi jadvalda aksiya daromadligiga korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlarining ta'siri baholangan. (9-jadvalga qarang). Ushbu jadvalda, PLS (Partial Least Squares regression), FE (fixed effect), RE (random effect) va DPD (dynamic panel data) chiziqli modellarining tahlil natijalari keltirilgan. Bunda, FE va RE modellari robust xatolikni qo'llagan holda, 95 foiz ehtimollik oralig'i uchun

³⁷ Sukesti F., Ghozali I., Fuad F., Almasyhari A., Nurcahyono N. (2020) Factors Affecting the Stock Price: The Role of Firm Performance / Journal of Asian Finance, Economics and Business Vol 8 No 2 0165-0173

³⁸ O'z.R.V.M. 09.12.2020 yildagi 775-son qarori. Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.12.2020-y., 09/20/775/1612-son) asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hisoblandi. PLS ga ko‘ra hech bir erkin o‘zgaruvchining aksiya daromadligiga ta‘siri statistik ahamiyatli deb topilmadi.

9-jadval

Ichki omillar panel ma‘lumotlari tahlili³⁹

VARIABLES	(PLS) ad	(FE) ad	(RE) ad	(DPD) ad
L.ad				1.198 (2.207)
L2.ad				0 (0)
roa	0.557 (0.589)	0.567* (0.262)	0.557*** (0.215)	0 (0)
roe	0.0324 (0.463)	0.0285 (0.142)	0.0324 (0.120)	2.566 (1.603)
sr	-1.62e-05 (8.21e-05)	-1.82e-05*** (4.31e-06)	-1.62e-05*** (2.77e-06)	-0.00161 (0.00122)
npm	-0.000226 (0.000435)	-0.000193*** (4.68e-05)	-0.000226*** (4.59e-05)	-0.00134** (0.000551)
fl	0.0171 (0.0131)	0.0180*** (0.00466)	0.0171*** (0.00209)	2.105 (1.539)
cr	0.00327 (0.00258)	0.00419*** (0.000772)	0.00327*** (0.000619)	0.116 (0.0830)
Constant	-0.0409* (0.0239)	-0.0456*** (0.00688)	-0.0409*** (0.00394)	-2.679 (1.949)
Observations	230	230	230	211
Number of AJ	7	7	7	7
R-squared	0.023	0.024		

Standard errors in parentheses
*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

FE, RE va DPD modellariga ko‘ra, ROA, moliyaviy leverij va joriy likvidlilik ijobiy hamda to‘lov qobiliyatligi va sof foyda marjasi aksiya daromadligiga salbiy bog‘liqligi statistik ahamiyatli deb topildi. Ya‘ni bunda, ROA, moliyaviy leverij va joriy likvidlilikning 1 foizga o‘shishi aksiya daromadligini mos ravishda qariyb 0.6 foiz, 0.02 foiz va 0.004 foizga o‘shishiga hamda to‘lov qobiliyatligi va sof foyda marjasining 1 foizga o‘shishi, aksiya daromadligini mos ravishda -1.62e-05 foiz va -0.00134 foizga kamaytirishi aniqlandi. ROE ko‘rsatkichining aksiya daromadligiga ta‘siri barcha shakllantirilgan modellarda ham statistik ahamiyatli deb topilmadi.

Ushbu modellar asosli ekanligini isbotlash uchun VIF testi o‘tkazildi. (10-jadvalga qarang)

10-jadval

Panel regressiyalari testi⁴⁰

	Hausman (1978) specification test	Modified Wald test	Breusch and Pagan (LM) test
	Coef.	Coef.	Coef.
Chi-square test value	.63	256.80	0.00
P-value	.96	0.0000	1.0000

³⁹ Muallif tomonidan STATA 14 dan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

⁴⁰ Muallif tomonidan STATA 14 dan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

VIF testi 1 va 10 oralig'ida, demak, model statistik ahamiyatga ega. Hausman testiga ko'ra, p-qiymat 0.05 dan baland bo'lganligi sababli, RE model tanlanadi. Takomillashgan Wald testi FE modelning guruhli geteroskedastikligini aniqlaydi. Ushbu test natijalariga ko'ra, FE modelida geteroskedastiklik muammosi mavjud. Bu muammolarni robust xatoliklar tizimini qo'llagan holda tuzatildi.

Xulosa qilib, aksiya daromadligiga ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Ushbu omillarning ta'sirini baholash korxonalarining tizimli va tizimsiz risklarini aniqlash hamda boshqarishga yordam beradi. Tashqi omillardan inflyatsiya, pul massasi, valyuta kursi, asosiy stavka, pul bozori stavkasi, depozit stavkasi, asosiy kredit stavkasi va foyda solig'i o'rganildi. Ichki omillardan aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, to'lov qobiliyati, sof foyda marjasi, moliyaviy leverij va joriy likvidlik ko'rsatkichlari bog'liqligi tekshirildi. Ushbu omillar ta'sirini baholash uchun panel ma'lumotlarga asoslangan chiziqli modellar PLS, FE, RE va DPD hamda MGARCH DCC modellaridan foydalanildi. Empirik tadqiqotlarda qo'yilgan gipotezalar quyidagi natijalarni berdi: (11-jadvalga qarang)

11-jadval

Gipoteza natijalari⁴¹

Tashqi omillar				Ichki omillar		
Ko'rsatkich	Gipoteza	Natija Panel	Natija GARCH	Ko'rsatkich	Gipoteza	Natija
Inflyatsiya	H ₁ (-)		+/-	Aktiv rentabelligi	H ₁ (+)	+
Pul massasi	H ₂ (-)		-	Kapital rentabelligi	H ₂ (+)	
Valyuta kursi	H ₃ (-)			To'lov qobiliyati	H ₃ (+)	-
Asosiy stavka	H ₄ (-)		+	Sof foyda marjasi	H ₄ (+)	-
Pul bozori stavkasi	H ₅ (-)		+/-	Moliyaviy leverij	H ₅ (-)	+
Depozit stavkasi	H ₆ (-)		-	Joriy likvidlik	H ₆ (+)	+
Asosiy kredit stavkasi	H ₇ (-)		+/-			
Foyda solig'i	H ₈ (-)	-	+/-			

Tadqiqot boshida qo'yilgan gipotezaga ko'ra, o'rganilgan tashqi omillar aksiya daromadligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi kerak edi. Ammo, tadqiqot natijalariga ko'ra, qo'yilgan gipotezalaridan faqat pul massasi va foyda solig'i o'zini oqladi, qolgan inflyatsiya darajasi, pul bozori stavkasi, asosiy kredit stavkasi turli aksiyadorlik jamiyatlariga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotda valyuta kursi aksiyadorlik jamiyatining aksiya daromadligiga ta'siri statistik ahamiyatli deb topilmadi.

Qo'yilgan gipotezaga ko'ra, ichki omillardan, aksiya daromadligiga to'lov qobiliyati va sof foyda marjasining ijobiy bog'lanish kutilgan edi. Chunki, sof foydaning o'sishi investorlar qiziqishini orttiradi, bu aksiyaga talabni oshirish orqali uning narxini ko'tarilishiga sabab bo'ladi deb hisoblangan edi. Tahlil ma'lumotlari buning aksini ko'rsatdi. Demak, faraz qilinishicha, "Toshkent" Respublika fond birjasida sof foyda marjasini ortishi barqaror korxonalarda investorlar ishonchini orttirgan, bu esa aksiya kursini barqaror summada ushlab turishlariga asos bo'lgan. Va ushbu jarayonning aksi, moliyaviy leverij darajasining pastligi aksiya

⁴¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

daromadligini oshirishi lozim deb qo'yilgan gipoteza o'rganilayotdan korxonalar misolida o'zini oqlamadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy leverij va aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya daromadligi o'rtasida ijobiy bog'lanish aniqlandi. Aktiv rentabelligi va joriy likvidlilik ko'rsatkichlar qo'yilgan gipotezaga ko'ra, aksiya daromadligi bilan ijobiy bog'liqlik kutilgan edi, tadqiqot natijalari ushbu gipotezani oqladi hamda ushbu o'zgaruvchilar o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kapital rentabelligi aksiya daromadligiga ta'siri statistik ahamiyatli deb topilmadi. Bosh gipotezaga ko'ra, ushbu o'zgaruvchilar orasida ijobiy bog'lanish kutilgan edi.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishni takomillashtirish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida moliya bozorida investorlar faolligini oshirish yo'nalishlari, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalalari, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishda hedjirlashdan foydalanish yo'nalishlari tadqiq etilgan hamda investitsiya portfelini daromadligini o'rta muddatli prognozlash amalga oshirilgan.

Bugungi kunda, moliya bozorini rivojlantirish borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Hisob-kliring tizimi bilan bog'liq risklar;
2. Minoritar va institutsional investorlar ulushining pastligi;
3. Erkin muomaladagi aksiyalar ulushi (free-float darajasi) ning pastligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni bajarish muhim hisoblanadi:

kliring bozorni, undagi kliring ishtirokchilarini har bir pozitsiyada marja taqdim etish orqali defoltdan himoya qiladi. Shu bois, hisob-kliring tizimi bilan bog'liq risklarni boshqarish tizimini o'rnatish, bozor ishtirokchilarining ishonchini orttiradi. Zero, kliring xizmati moliya bozorda barqarorlikni ta'minlash, kontragentning kredit riskini va tranzaksiya xarajatlarini (netting) kamaytirish maqsadida faoliyat yuritadi;

qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorida savdo hajmini oshirishga hamda qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazishda “qutida ro'yxatga olish” (shelf-registration) amaliyotini joriy etish;

minoritar aksiyadorlarni ulushini kengaytirish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy risklarni samarali boshqarish maqsadida o'z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini (ESOP) joriy etish;

investitsiya portfel shakllantirishda moliyaviy risklarni samarali boshqarish maqsadida o'z xodimlariga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarga doir opsiionni sotish (berish);

foiz va soliq risklarni kamaytirishda REPO operatsiyalari bo'yicha soliq tartibotlarini takomillashtirish. Ya'ni, investorlarning jami daromaddan REPO operatsiyalari bo'yicha daromadini chiqarib tashlash zarur.

Birinchi muammoni bartaraf etish uchun asosiy masala bu yerda, moliyaviy risklarni samarali boshqarish maqsadida korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblarni fond birjasining “Main Board” savdo maydonchasi uchun “T+2”

yangi hisob-kitoblar (kliring) modelini joriy qilish, davlat qimmatli qogʻozlari bilan savdolar amalga oshirilganda qimmatli qogʻozlar va pul mablagʻlarini oldindan depozitga qoʻyish talablarini bekor qilish hamda yangi hisob-kitoblar (kliring) modelining bir qismi sifatida risk boshqaruvi amaliyotini joriy etishga qaratilishi lozim. Bunda asosan “T+2” modelini joriy qilish orqali yangi defolt (risk) boshqaruv tizimini qoʻllanishini yana bir kunga uzaytirish taklif etilgan.

Jahon amaliyotida 1975-yildan boshlab, “T+5” modeli qoʻllanilgan boʻlsa, keyin 1993-yilda “T+3” shakliga⁴² oʻtilgan va hisob-kitobni amalga oshirish muddati ikki kunga qisqargan. 2017-yildan buyon qimmatli-qogʻozlar savdosida “T+2” modeli⁴³ qoʻllanilmoqda. 2024-yil 28-maydan boshlab AQSh qimmatli qogʻozlar va birjalar komissiyasi (The United States Securities and Exchange Commission, SEC) bitim va hisob-kitob kuni orasini yana bir kunga qisqartirgan holda, “T+1” modelini amaliyotga kiritdi. Umuman olganda, ushbu modellarning farqli jihatlari, yutuq va kamchiliklari quyidagi jadvalda keltirilgan: (12-jadvalga qarang)

12-jadval

Hisob-kitob (kliring) modellari⁴⁴

Tavsifi	T+0 / T+1	T+2	T+3 / T+5
Vaqt tafovutlariga koʻra qulaylik	-	+	+
Moslashuvchalik	-	+	+
Pul oqimlarini toʻgʻri boshqarish	-	+	-
Operatsion xarajatlar yuqori	+	-	+
Defolt riski yuqori	+	-	+
Kontragent riski	+	-	+
Bitim riski	+	-	+
Likvidlilik riski	+	-	-
Valyuta riski	+	-	-
Strategiyalarni optimallashtirish	-	+	+
Logistik qiyinchiliklar	+	-	-
Texnik muammolar	+	-	-

Hozirda qoʻllanib kelinayotgan “T+1” hisob-kitob (kliring) modeli, yaʼni bitim va hisob-kitob kunlari orasidagi davrning qisqaligi investorga moliyaviy, operatsion va investitsiyaviy qarorlarini tezda moslashtirish, shuningdek, investitsiya, soliq va savdo strategiyalarni qayta koʻrib chiqish uchun vaqt yetishmaslik muammosini tugʻdiradi. Vaqt yetishmasligi, majburiyatlarni oʻz vaqtida bajarmaslik ortidan defolt, kontragent, bitim, likvidlilik kabi turli risklarni oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, xorijiy investorlar uchun vaqt zonasidagi nomutanosibliklar qarorlarga tezda javob berish, kapital yoki moliyaviy instrument oʻtkazish va valyuta konvertatsiyalanish jarayonlaridagi murakkabliklariga duch kelishadi. Swift instituti tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlarda, “T+1” hisob-kitob (kliring) modeli qoʻllanilgan bozorlarda, transchegaraviy hisob-kitoblarni boshqarish uchun boshqa investorlarga qaraganda taxminan 80 foiz kamroq vaqt mavjudligi aniqlandi.⁴⁵

⁴² U.S. Securities and Exchange Commission. “About Settling Trades In Three Days: Introducing T+3” www.sec.gov

⁴³ U.S. Securities and Exchange Commission. “SEC Adopts T+2 Settlement Cycle for Securities Transactions” www.sec.gov

⁴⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴⁵ <https://www.swift.com/securities/preparing-t1-settlement>

Savdo jarayonlarini soddalashtirish va hujjatlashtirish jarayonlarini yengillashtirish - investorlarni moliya bozorga jalb qilishning eng maqbul usullari sanaladi. Qimmatli qog'ozlarning har bir diskret ro'yxatdan o'tgan taklifi alohida ro'yxatga olish bayonotining predmeti bo'lishi, hujjatlarini tayyorlash bilan bog'liq kechikishlarga olib keladi, bu esa emitentlarning qulay moliyalashtirish uchun bozorga tezda kirish imkonini bermaydi. Shu bois, qimmatli qog'ozlar chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorida savdo hajmini oshirishga hamda kapital bozoriga minoritar investorlarni yanada keng jalb qilishga erishish maqsadida qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazishda "qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) amaliyotini joriy etish o'rinli bo'ladi. Bunda, emitentlar katta miqdordagi aksiya paketlarini oldindan ro'yhatdan o'tkazib, qulay moliyalashtirish imkoniyati paydo bo'lganda, ushbu qimmatli qog'ozlarning zaruriy qismini "javondan" olib zudlik bilan sotish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, "qutida ro'yxatga olish" aksiyadorlik jamiyatlariga birinchi navbatda, kelajakda sotuvga qo'yishni rejalashtirgan o'z kapitalini taqdim etib, so'ng odatda ikki yil mobaynida boshqa me'yoriy talablarsiz uni emissiya qilishga imkon beradi. Tadqiqot davomida iqtisodchi olimlarning ko'p yillik ilmiy ishlari va ularning natijalarini tadqiq etish natijasida taklif etilayotgan yangi ro'yhatga olish "qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) jarayonini amalda qo'llanib kelayotgan jarayondan quyidagi farqli jihatlari aniqlandi: (13-jadvalga qarang)

13-jadval

Ro'yhatga olish jarayoni tahlili⁴⁶

Tavsifi	Amaldagi jarayon	Taklif etilayotgan jarayon
Moslashuvchan	Past	Yuqori
Tezlik	Past	Yuqori
Xarajat	Yuqori	Past
Daromad	Past	Yuqori
Emissiya qiymati	Yuqori	Past
Emissiya qilish	Past	Yuqori
Cheklovlar	Yuqori	Past
Moliyaviy leverij	Yuqori	Past

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra shuni ta'kidlash mumkinki, "qutida ro'yxatga olish" jarayoni emitentga ikki yil ichida emissiya qilishi rejalashtirilayotgan moliyaviy instrumentlarning katta qismini bir yo'la ro'yhatga olish va qulay bozori sharoitida savdoga chiqarish imkonini yaratganligi sababli, bozorga moslashuvchanligi yuqoriligi aniqlangan. Bundan tashqari, "javon"da saqlanayotgan moliyaviy instrumentlarni tezda muomalaga jalb qilish mumkin bo'ladi (Moehrle, 2004; Iliev va Gustafson, 2007), andarrayting to'lovlari, rasmiylashtirish va hujjatlashtirish xarajatlari past (Marl, Spivey va Blekvel, 1990), qimmatli qog'ozlarni qulay bozor narxlarida emissiya qilishga hamda daromadlarni maksimal darajada oshirishga imkon beradi (Moehrle, 2004), qimmatli qog'ozlar emissiya qilish xarajatlari pasaygani bois emissiya qiymati sezilarli darajada pasaygan, kichik korxonalariga ham ushbu jarayonda ishtirok etish imkoni yaratilgani bois aksiyalarning chiqarish hajmi oshgan va bu arzon kapital jalb qilishi

⁴⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

usuli sifatida korxonalar o'z mablag'lari manbaini ko'paytirgan (Iliev va Gustafson, 2007). Shunday qilib, ushbu amaliyotni joriy qilish orqali andarrayting sohasida raqobat oshadi, emissiya xarajatlarini kamayadi, hujjatlashtirish jarayonlarini yengillashadi, shuningdek, korxonalar davlat kapitalini chiqarishni tezlashtirishga, uzoq vaqt talab etuvchi emissiya va andarrayting jarayonini o'z ichiga olgan an'anaviy aksiyalarni taklif qilish amaliyotini chetlab o'tishga, moliyalashtirish ehtiyojlariga tezda javob berishga, qimmatli qog'ozlarni qulay bozor narxlarida emissiya qilishga hamda daromadlarni maksimal darajada oshirishga imkon berishi tufayli o'z kapitalini oshirishning eng arzon usulini taqdim etadi.

Keyingi muammo, bu erkin savdoda aksiyalar hajmining kam miqdordaligi hisoblanadi. Free-floatni kengaytirish uchun xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish zarur. Buning uchun, aksiyadorlik jamiyatlarini qimmatli qog'ozlar bozoridagi savdo hajmini yanada oshirish maqsadida qo'shimcha moliyaviy instrumentlarni uyushgan savdolarida joylashtirish asosida minoritar investorlarni kapital bozoriga kengroq jalb qilish, ularning investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni samarali boshqarish maqsadida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag'larining bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish talab etiladi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi fond bozoridagi holat tahlil qilingan. (14-jadvalga qarang)

14-jadval

O'zbekiston Respublikasi moliya bozori tahlili (aksiyalar bo'yicha)⁴⁷


№	Ko'rsatkichlar	Yillar							
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Davlat ishtirokidagi korxonalar									
1.	Davlat ulushi, %	84.9	89.5	81.3	88.2	86.7	84.0	84.2	79.9
2.	AJ soni	146	195	257	254	234	223	239	261
3.	Aksiyalar soni, trln	38.039	47.371	74.559	127.6	125.32	134.58	158.27	171.6
Fond bozori									
4.	AJ soni	606	603	593	599	607	628	625	688
5.	Kapitallashuvi, trln	14.81	21.59	52.3	54.79	56.20	94.38	84.85	242.4
6.	YAIMga nisbatan, %	4.15	4.56	8.79	9.10	7.65	11.33	15.9	16.7
7.	Listing kompaniyalari	189	132	112	103	139	111	112	103
8.	Bitimlar hajmi, trln	0.3	0.7	0.4	0.510	1.147	4.705	2.620	19.182
9.	Bitimlar soni	2572	13750	32 816	36 000	71 489	80 723	411393	446967
10.	Aksiyalar soni, trln	1.55	10.06	8.11	99	14.2	36.15	28.08	24.9
11.	Aksiya emissiyasi hajmi, trln	48.6	59.4	99.2	149.5	153.0	166.7	189.7	214.7

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, davlat tomondan olib borilayotgan chuqur xususiylashtirish jarayonlariga qaramay, davlat ishtirokidagi korxonalar ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2017-yilda 146 ta korxonaning 38 trln

⁴⁷ uzse.uz va uzcsd.uz saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

soʻmlik aksiyasiga egalik qilayotgan boʻlsa, 2024-yil yakunlariga kelib, ushbu korxonalarining miqdori qariyb 1.8 barobar oshib 261 tani tashkil etgan boʻlsa, uning egalik qilayotgan aksiyalar hajmi 4 barobarga oshib ketganini koʻrish mumkin.

Oʻz xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini (ESOP)ni joriy qilinishi, korxonaning ishchilarini manfaatdorligini oshirgan holda, ish samaradorligini oshirish, oʻz ish joyidan qoniqish orqali qoʻnimlilikni oshirish, korxonaning naqd pullarini oshirishda ichki resurslardan foydalanish, soliq riskini samarali boshqarish va asosan xususiy lashtirish jarayonini maqbul tarzda oʻtishini yengillashtirish imkon beradi. Umuman olganda, ESOP foydani taqsimlashga oʻxshash tarzda xodimlarni ragʻbatlantirishning usuli deb atash mumkin. Ushbu reja quyidagi tartibda ishlaydi: (4-rasmga qarang)



4-rasm. Oʻz xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP)⁴⁸

Bunda, birinchi navbatda, korxonona ushbu rejani bajarishi uchun ESOP fondini shakllantirishi lozim. Ushbu fondga korxonona aksiyadorlarining oz miqdordagi aksiyalarini joylashtiradi va korxonona xodimlariga bozor bahosidan yuqori boʻlmagan narxda sotadi. Agar aksiya egalari oʻz aksiyalarini sotishni istamasa, korxonona yangi aksiyalarni emissiya qilishi mumkin. Agar korxonona mavjud yoxud yangi aksiyalarni joylashtirish uchun zaruriy naqd puli yetishmasa, uni bankdan jalb qilishi mumkin. Keyinchalik, ushbu fond orqali qarz soʻndirib boriladi. ESOP rejasiga koʻra, unda ishtirok etayotgan har bir xodim uchun alohida hisob raqam ochiladi. Ushbu hisob raqamga xodim ishlagan davrdagi foydasi yigʻib boriladi. Xodimlar odatda, ushbu fondan aksiyalarni ish haqqiga nisbatan, har yil yakuniga koʻra oladi. Bunda, xodim ushbu korxonada qanchalik uzoq faoliyat yuritrsa, ulush shunchalik oshib boradi. Bu bilan xodimlar jamiyat kengashida qatnashish va ovoz berish huquqiga ega boʻladi. Korxonona ESOP ga badal kiritish orqali, keyinchalik ushbu badallarni qarzni toʻlash sifatida foydalansa hamda dividendlar ESOPning kreditini qoplash, xodimga berilgan yoki xodimlarga qoʻshimcha aksiya olish uchun investitsiya qilingan boʻlsa ESOP fondiga badallar va dividendlar soliq bazasidan chegirib tashlanadi. Shu sababdan, bu holat foydani oshirishga va soliq riskini minimallashtirishga olib keladi.


Har bir investor investitsiya portfelini shakllantirayotganda asosiy eʼtiborini yuqori daromad keltiruvchi, bir-biri bilan oʻzaro bogʻliq boʻlmagan aktivlarni tanlab olishga intiladi. Metod tanlashning birinchi eʼtibor beriladigan jihat bu moliyaviy risk turi hisoblanadi. Amaliyotda korxonalar va investorlar tomonidan tizimsiz, yaʼni oʻz boshqaruvlari bilan bogʻliq risklarni kamaytirishdan koʻra, tizimli risklarga bardosh berish qiyinchilik tugʻdiradi. Inflyatsiya riski, valyuta riski, foiz riski, narx

⁴⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

riski kabi tizimli risklarning oqibatini yumshatishda eng samarali moliyaviy risklarni boshqarish metodlaridan bu hedjirlash hisoblanadi.

Opsion shartnomasi rejadan og‘ishishlar minimallashtirish va katta yo‘qotishlarni oldini olish uchun muhim instrument hisoblanadi. Uning asosiy afzalligi boshqa hosilaviy qimmatli qog‘ozlardek majburiy xarakterga ega emas, u o‘z egasiga ixtiyoriy tanlovni taqdim etadi. Ushbu shartnoma turi standartlashtirilgan bo‘lib, forvard shartnomasidagi kontragent riski kabi kamchiliklarni bartaraf etadi. Hamda, uning qimmatli qog‘ozlar bozorida savdo qilinishi investorlar oldida ishonchliligini orttiradi. Undan tog‘ri va samarali foydalanish moliyaviy risklarni oqilona boshqarishga xizmat qiladi.

Opsionlarni baholash modellari ikki turga ajratiladi: (5-rasmga qarang)



5-rasm. Opsionlarni baholash modellari⁴⁹

Deterministik va stoxastik modellar o‘rtasidagi tanlov ko‘pincha deterministik modellarda soddalik va tezlik zarurati bilan, stoxastik modellar holatida bozor dinamikasini aniqroq ifodalash talabidan kelib chiqadi.⁵⁰ Tadqiqotchilar va amaliyotchilar bozor sharoitlari nisbatan barqaror bo‘lganida deterministik modellarni tanlaydilar. Bunda asosiy e‘tibor tez va samarali baholanadigan opsion narxlariga qaratiladi.⁵¹ Misol uchun, dividendlar to‘lanish vaqti aniq bo‘lsa, Blek-Shoulz modelini qo‘llash samarali va oson hisoblanadi, chunki u aniq opsion bahosi beradi.⁵² Xulosa qilib aytganda, ushbu ikki modellar o‘z yutuq va kamchiliklariga ega. Ammo, deterministik modellar olimlar va amaliyotchilar tomonidan afzal ko‘riladi. Buning bir qancha sabablari bor: birinchidan, ushbu modellarni hisoblash sodda va samaraliroq, bu vaqt tejash va yuqori aniqlikni taklif etadi.⁵³ Ikkinchidan, barqaror bozor sharoitida tebranuvchanlik minimal bo‘lishi opsionlarni baholashni ishonchliligini oshiradi.⁵⁴ Milliy fond bozorida ham narxlar yuqori o‘zgaruvchanlikka ega emasligi, deterministik modellarga ustuvorlik beradi. Uchinchidan, ushbu modellar yevropa opsionlar uchun keng qo‘llanilgan va o‘z samarasini isbotlagan.⁵⁵ Shu sababdan, milliy kapital bozori nisbatan barqaror va

⁴⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁵⁰ Moon K., Seon J., Wee I., and Yoon Ch. (2009). Comparison of Stochastic Volatility Models: Empirical Study on Kospi 200 Index Options. *Bulletin of the Korean Mathematical Society* 46 (2): 209–227. <https://doi.org/10.4134/bkms.2009.46.2.209>

⁵¹ Kumar S. (2014). Parity Analysis of Non-Log Normality of Black-Scholes and Its Inter-Competence. *International Journal of Financial Markets and Derivatives* 3 (4): 358. <https://doi.org/10.1504/ijfmd.2014.062379>.

⁵² Weert F. (2008) *Exotic Options Trading*// John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England.

⁵³ Tom A. (2001) Flattening the Volatility Smile: A Test of Option Pricing Models. *SSRN Electronic Journal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.285237>

⁵⁴ Shu F., Pu X., and Zhang Y. (2018) An Empirical Examination of the Relation Between the Option-Implied Volatility Smile and Heterogeneous Beliefs. *The Journal of Derivatives* 25 (4): 36–47. <https://doi.org/10.3905/jod.2018.25.4.036>.

⁵⁵ Luo Q., Zhaoli J., Hongbo L., and Yongxin W. (2022) Analysis of Parametric and Non-parametric Option Pricing Models. *SSRN Electronic Journal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.4141327>.

listingdan o'tgan korxonalarining aksiya narxlari tebranuvchanligi pastligini inobatga olinsa, O'zbekiston sharoitida iqtisodiyot olamiga mashhur Blek-Shoulz modelini qo'llash moliyaviy risklarni oldini olish uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu modeldan foydalanish yillar davomida sinovdan o'tgan, dolzarbligini yo'qotmagan, qo'llanishda nisbatan oson va qulay hisoblanadi.

